

Bani Isroilning qaysarligi



15:43 / 31.10.2022 1363

Isroil farzandlari o‘jar tabiatli bolaga o‘xshardilar. Ular buyurilgan ishning teskarisini qilishni va masxaralashni yaxshi ko‘rishardi. Bu qavm o‘zlariga aytilgan narsani albatta almashtirish kerak, deb turardi. Xuddi o‘jar bolalar kabi: Agar siz ularga «Tur!», desangiz o‘tirib olishadi. «O‘tir!», degan buyruqni eshitishlari bilan sakrab turishadi. «Jim bo‘l!», deyilganda gapirib, «Gapir!», deyilsa jim turishadi.

Bani Isroilning o‘jarligida nodonlik, jinnilarcha hatti-harakat va maraz ishoralar ham bor edi.

Ular bir qishloqqa tushib uning sabzavot va poliz ekinlaridan tashkil topgan ishtahali ovqatlaridan yemoqchi bo‘ldilar. Lekin Alloh taolo izn bergach: «Ushbu qishloqqa (Quddusga) kiringlarda, undan xohlagan joylaringizda yeb-ichinglar. Darvozadan sajda qilgan holingizda kiringlar va «avf et» denglar, biz xatolaringizni mag‘firat qilamiz va yaxshilik egalariga ziyoda ne‘matlar ato qilamiz».

Bani Isroil ushbu ilohiy amrdan o‘zlaricha darg‘azab bo‘ldilar. Ular shaharga xohlamasdan istehzo qilib orqalari bilan yer supirib-sudralib kirdilar.

«Shunda zolim kimsalar ularga aytilgan so‘zdan boshqa so‘zni almashtirib aytdilar».

Alloh taolo ular ustiga balo tushirib, vabo balosini yubordi. Qavm sichqon o'limidek o'lib ketdi. Agar ularga bir narsa buyurilsa, titkilab qayta-qayta savol berishaverardi. Kishi bir ishni qilgisi kelmasa, turli bahonalar bilan vaqtni cho'zib yuraveradi. Hadeb savollar beradi. Bani Isroil orasida qotillik sodir bo'ldi. Bu narsa Bani Isroilni tashvishga solib qo'ydi. Odamlar har qancha urinmasinlar haqiqiy qotilni topisha olmadi. Qotil haqidagi so'rov odamlarni kunlik suhbatiga aylanib qoldi. So'ng Muso alayhissalom huzuriga keldilar:

- Ey Allohning Payg'ambari! Mana shu muammoda bizga yordam bergin. Parvardigoringga duo qil. Qotilning kimligini bildirsin.

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad